

ICHKI AUDITNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI

Mexmonaliyev Ulug‘bek Erkinjon o‘g‘li

FarPI, Buxgalteriya hisobi (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)

mutaxassisligi magistranti

Elektron pochta: lionslar9233@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ichki audit xizmati nafaqat global tendentsiya, balki faol rivojlanayotgan va murakkab iqtisodiy munosabatlar sharoitida o‘ta zaruratdir. Ushbu maqolaning maqsadi O‘zbekistonda ichki auditning asosiy muammolarini aniqlashdan iborat. Ichki auditning to‘g‘riliqi tushunchasi zamonaviy tashkilotlarning korporativ boshqaruvi sharoitida ichki auditni intizomiy mexanizm sifatida o‘rganish uchun kontseptual vositalarni taqdim etadi. Maqola iqtisodiy faoliyatning ratsionalligi va tegishli nazorat choralarini kuchaytirish uchun dastlabki kontseptual formulani va ichki auditni, auditni va nazoratni rivojlantiradi.

Kalit so‘zlar: audit; ichki audit; rivojlanish; mexanizm.

АННОТАЦИЯ

Служба внутреннего аудита - это не просто мировой тренд, а крайняя необходимость в условиях активно развивающихся и усложняющихся экономических отношений. Цель данной статьи - выявить основные проблемы внутреннего аудита в Узбекистане. Утверждается, что понятие корректности внутреннего аудита предоставляет концептуальные инструменты для изучения внутреннего аудита как дисциплинарного механизма в условиях корпоративного управления современных организаций. Статья развивает первоначальная концептуальная формулировка и внутренний аудит, аудиты и контроль для повышения рациональности экономической деятельности и связанных с этим мер контроля.

Ключевые слова: аудит; внутренний аудит; разработка; механизм.

ABSTRACT

The Internal Audit Service is not just a global trend, but an urgent need in the conditions of actively developing and increasingly complicated economic relations. The purpose of this article is to identify the main problems of internal audit in Uzbekistan. It is argued that the concept of internal audit correctness provides conceptual tools for studying internal audit as a disciplinary mechanism in the conditions of corporate governance of modern organizations. The article develops

the initial conceptual formulation and internal audit, audit and control to improve the rationality of economic activity and related control measures.

Keywords: audit; internal audit; development; mechanism.

KIRISH

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning moliyaviy holati to‘g‘risidagi ishonchli ma’lumotlarga ega bo‘lishning asosiy quroli bu ichki auditdir. Zamonaviy iqtisodiyotda muhim o‘zgarishlar mavjud bo‘lib, ulardan biri korporatsiyada ilgari teng bo‘lmagan korxonalarini – yirik biznes sub’ektlarini mustahkamlash, turli tashkiliy-huquqiy shakllarga ega bo‘lgan aktsiyadorlik kompaniyalari va yuridik shaxslarning integratsiyasini ifodalaydi. Konsolidatsiya arzon moliyaviy resurslarni jalg qilish maqsadida tezkor boshqaruv funksiyalarini aksiyadorlardan yollanma top-menejerlarga o‘tkazish, O‘zbekiston korporatsiyalarining jahon fond birjalariga chiqishi bilan birga olib boriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 2020 yil 24 fevraldaggi PQ-4611 qarori yurtimizda hisob siyosatida yangi sahifa ochildi.


Bu jarayonlar O‘zbekiston korporatsiyalari faoliyati ustidan ichki nazoratni tashkil etishda muhim o‘zgarishlarga sabab bo‘lib, moliyaviy-xo‘jalik faoliyati to‘g‘risidagi axborotni oshkor qilishning boshqa talablarini ilgari suradi.

Ilmiy- tadqiqot metodlari

Korxonalar ichki audit tizimining asosiy vazifasi –maxsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirish va tan narxini pasaytirish yo‘llarini izlab topishdir. Ichki auditor yana korxonaning mehnat unumdarligini va samaradorligini oshirish bo‘yicha maslaxatlar berishi kerak. Iqtisodiy tizimning buzilishini tekshirish ko‘p mehnat talab qiladigan auditdir. Bunda korxona moliyaviy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy yo‘nalishlari o‘rganiladi. Ichki auditor korxonada u yoki bu rivojlanish yo‘nalishini ma’qullashi yoki ma’qullamasligi mumkin. Ichki audit maqsadi korxona xodimlarining qonun hujjatlari, me’yoriy hujjatlarga va kasb faoliyati standartlariga rioya etishini nazorat qilish, tamonlar manfaatlari o‘rtasidagi nizolarni bartaraf etish, korxona amalga oshirayotgan operatsiyalarning xususiyatlari va ko‘lamlariga mos ishonchlilikni ta’minlash xamda korxona faoliyatidagi xatarlarni kamaytirish yo‘llaridan iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda ichki audit qonun va me’yoriy hujjatlarga asosan tashkil qilinadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qimmatli qog‘ozlar bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2006 yil 27 sentyabrdagi PQ-475-son

qaroriga, hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ustav fondida davlat ulushi bo'lgan korxonalarning samarali boshqarilishini va davlat mulkining zarur darajada hisobga olinishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2006 yil 16 oktyabrdagi 215-son qaroriga muvofiq aktivlarining balans qiymati 1 mlrd. so'mdan ortiq bo'lgan korxonalarda ichki auditni tashkil etishga qo'yiladigan yagona talablarni hamda uning ishini tashkil etishning metodologik asoslarini belgilash maqsadida «Korxonalardagi ichki audit xizmati to'g'risida Nizom» qabul qilindi. Hozirgi kunda ushbu Nizom xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda ichki auditni tashkil qilish tartibi ko'rsatilgan me'yoriy hujjat hisoblanadi.



1-chizma. Mikrodarajadagi nazorat tizimi¹

«Korxonalardagi ichki audit xizmati to'g'risida Nizom»ga muvofiq ichki audit xizmati xodimlari soni ichki audit maqsadlariga samarali erishish va uning vazifalarini hal etish uchun etarli bo'lishi kerak. Ya'ni, ichki audit xizmati shtatida quyidagilar bo'lishi kerak:

Ichki audit xizmatiga tegishli auditor sertifikatiga ega bo'lgan uning rahbari boshchilik qiladi.

Har yili ichki audit xizmati rahbari ichki audit xizmati xarajatlarining yillik smetasini tuzadi va uni tasdiqlash uchun xo'jalik yurituvchi sub'ektning kuzatuvchi kengashiga taqdim etadi.

¹ Суйц В. Аудит. Учебник. – М.: "Высшее образование ", 2007 г. –398 стр.

Ichki audit xizmati xodimlarining kasb darajasi tegishli litsenziyaga ega bo‘lgan ta’lim muassasalarida muntazamlilik asosida ularning malakasini oshirish vositasida saqlanishi kerak.

Ichki audit xizmati xodimlari xo‘jalik yurituvchi sub’ekt kuzatuvchi kengashi tomonidan har yili attestatsiyadan o‘tkazilishi kerak.

Muhokamalar va xulosa

Xalqaro ichki auditorlarning professional standartida ichki auditga quyidagicha ta’rif beriladi, -“ichki audit – korxonanai moliya-xo‘jalik faoliyatini samaradorligini oshirishga qaratilgan aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish va tadbiq etish bilan bog‘liq maslaxat xususiyatiga ega mustaqil va xolis faoliyatdir”.

Korxonalarda moliyaviy resurslarni nazoratini quyidagilar amalga oshiradilar, ya’ni ushbu faoliyatni amalga oshiruvchi maxsus bo‘lim, boshqaruv xodimlari va mutaxassislar, bosh buxgalter buxchiligidagi buxgalteriya xodimlari. Korxonalarda ushubu turdagи nazorat sub’ektlarining mavjudligi bir qancha muammolarga olib keladi.


Birinchidan, nazorat qiluvchi strukturalarning ko‘pligi, ular orasidagi ayrim vaziflarni qaytarilishiga olib olib keladi, shu sababdan ular faoliyatlarini koordinatsiyalash lozim;

Ikkinchidan, ichki nazorat bo‘limlarini mustaqilligini ta’minlash, ularning funktsiyalarini aniq belgilash hamda ichki hujjatlardagi axborotlar oqimini belgilash lozim.

Ushbu muammolarni xal etishda korxonalarda ichki audit funktsiyalarini yuqoridagi tashkiliy darajalarda taqsimlanishi lozim. Funktsiyalarni taqsimlash quyidagi tamiyillarga asoslanishi lozim:

1. Raxbariyat darajasidagi ma’lum masalalarni yuqori malakaga ega auditorlar ko‘rishi, hamda turli bo‘limlardagi auditorlarni rotatsiyasini amalga oshirilishi;
2. Auditorlarni ishtiroki shart bo‘lmagan masalalarni yaxshi yo‘lga qyilgan axborotlarni oqimi o‘z vaqtida foydalanish orqali yuqori tashkiliy darajada xal etish;
3. Katta bo‘limlarni tekshirish vaqtida yuqori malakaga ega auditorlar xizmatidan foydalanish lozim.

Korxonalarda moliyaviy resurslar nazoratini amalaga oshiruvchi sub'ektlar.



2-chizma korxonalarda nazoratni amalga oshiruvchi sub'ektlar².

Korxonalarda ichki audit xizmatini tashkil etishda ikkita muammoga duch kelinadi, ya’ni filiallar rahbarlari hamda ijroiya bo‘limlari ustidan nazoratni o‘rnatish yuzasidan; shu’ba korxonalarini boshqarish tizimini tashkil etish va ularni nazorati yuzasidan.

Bizning fikrimizcha korxonalarda ichki auditning asosiy funktsiyalariga quyidagilarni kiritishimiz lozim:

- Nazorat funktsiyasi:

- Moliyaviy resurslarni o‘rganish, baholash va ichki nazorat tizimi samaradorligi monitoringini olib borish;
- Qonunchilikka riosa etilishi;
- Moliyaviy hisobotni tuzish va yuritish tartib qoidalariga riosa etilayotganligini;
- Soliq hisobi va hisoboti belgilangan me’yorlar asosida yuritilishi;
- Xolding miqyosida resurslarni shakllanishi, ishlatalishi, va xarakati to‘g‘risidagi qarorlarni to‘g‘ri qabul qilinganligin baholash;
- Tashqi auditorlar bilan o‘zaro aloqalarni o‘rnatish.

² Chizma mualif tomonidan mustaqil tuzildi.

- Tahliliy axborot funktsiyasi:

- a. korxonalarni resurslardan foydalanish darajasi xaqida kuzatuv kengashiga axborot berish;
- b. Moliyaviy resurslar bo'yicha ishlab chiqilgan boshqaruv qarorlarini ekspertizalash;
- c. Ichki mablag'lar oqimi va ularni manbalarini tahlil qilish;
- d. Smeta va biznes rejalarini ishlab chiqish va tahlil qilishda ishtirok etish.

- Maslahat funktsiyasi:

- a. Buxgalteriya hisobini yuritishni samarali metodoligiyalarini
- b. Soliqlar va yig'imlarni hisoblash metodologiyalarini ishlab chiqishda (tahlil qilishda) ishtirok etish;
- c. Boshqaruv axborotlar tizimini takomillashtirish yo'llarini ishlab chiqish;
- d. Ichki audit vakolatiga doir bo'lgan masalalar yuzasidan bo'limlarga maslahatlar berish.

Ichki audit xizmati bo'limining ish faoliyatini samaradorldigi uning oldiga qo'yilgan maqsad, vazifalar va funktsiyalarini qay darajada bajarganligiga qarab baholanadi.

Yuqorida keltirilgan tamoyillarni amaliyotda qo'llash natijasida korxonalarda moliyaviy resurslarni shakllanishi, ularni ishlatish, hisobni to'g'ri tashkil etilganligini baxolashga hamda kapital tarkibini taxlil qilish imkonini beradi. Ichki audit bo'limi har doim ham xo'jalik yurituvchi sub'ektga to'g'ri va aniq ma'lumotlarni olaolmasligi va natijada noto'g'ri xulosa va takliflar berishi mumkin, chunki xolding kompaniyalarini moliyaviy hisoboti ma'lum davrga etarli ma'lumotlarni o'zida aks ettirmasligi mumkin.

Ichki audit xizmati xo'jalik yurituvchi sub'ektning hisobotini tahlil etadi, kelgusi rivojlanish yo'nalishini aniqlaydi va rahbariyatga qaror qabul qilishga yordam beradi. Umuman, ichki audit natijalari xo'jalik yurituvchi sub'ekt ichidagi boshqaruvning takomillashuviga ta'siri kattadir.

Respublikamizda ichki auditning shakllanishi uchun qonunchilik bazasini takomillashtirilishi hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlarning pishiq-puxtaligiga va ularni amaliyotga tatbiq eta olinishiga erishish lozim.

Bizningcha, ichki auditni avtomatlashtirish (kompyuterlashtirish) auditorlik ishining samarasini oshiradi, ikkinchi tomondan esa nazorat-maslahat tizimini yaratish imkonini beradi. Ichki auditni avtomatlashtirish (kompyuterlashtirish) jarayonida quyidagi elementlarga alohida e'tibor qaratish lozim deb o'ylaymiz:

- Audit jaryonini aks ettiruvchi iqtisodiy matematik, iqtisodiy-tashkiliy va axborot modellariga;

□ Modellarni amalga oshiruvchi texnik, programma, axborot va boshqa vositalarga.

Bizningcha, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlari faoliyatini boshqarishda ichki audit funktsiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun, O‘zbekistonda «Ichki auditorlarning ahloqiy me’yorlari», ichki auditni o‘tkazish standartlarini ishlab chiqish va qabul qilishi zarur, shuningdek ichki auditni faoliyat shakli sifatida qonunda mustahkamlab qo‘yish kerak.

Ichki audit ish hujjatlarini jalg etish tajribasi, shuningdek tashqi auditga bevosita yordam ko‘rsatish uchun ichki auditorlarning o‘zlarini jalg etish tajribasi kengayshi munosabati bilan ichki audit bahosi mezonlarini aniqlash zaruriyatini tug‘diradi. Bizningcha, bunday mezonlar ichki auditning etik qoidalari va kasb (mutaxassislik) standartlarida bo‘lishi kerak. Ularga rioya qilish ichki auditning yuqori sifatini kafolatlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning 2020 yil 25 yanvardagi 2020 yil uchun eng muhim ustivor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojatnomasi. <https://kun.uz/uz/99444746>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori. Toshkent sh., 2020 yil 24 fevraldagi PQ-4611 sonli. <https://lex.uz/docs/-4746047>.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qimmatli qog‘ozlar bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori. Toshkent sh., 2006 yil 27 sentyabrdagi PQ-475-sonli. <https://lex.uz/docs/1061595>.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. Toshkent sh., 2018 yil 3 iyuldaggi PQ-3832 sonli. <https://lex.uz/docs/3806053>.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ustav fondida davlat ulushi bo‘lgan korxonalarining samarali boshqarilishini va davlat mulkining zarur darajada hisobga olinishini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori. Toshkent sh., 2006 yil 16 oktyabrdagi 215-sonli. <https://lex.uz/docs/-1072916>.
6. Суйц В. Аудит. Учебник. – М.: “Высшее образование”, 2007 г. –398 стр.
7. Ilhamov Shavkat Islamovich. Amaliy audit. Darslik. -T.: Iqtisodiyot, 2011. - 365 b.
8. Do‘smonratov R., Fayziyev Sh., Qo‘zziyev I, Avloqulov A., Po‘latov G‘. Audit. O‘quv qo‘llanma. II qism. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2008, 176 b.